

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI HALOLLIK VA ISHONCHGA TAHDID

Metallurgiya sanoati – mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lib, unga katta miqdordagi ishchi kuchlari, murakkab texnologiyalar va katta moliyaviy investitsiyalar jalb qilingan. Har qanday jamiyatda, tashkilotlarda va hatto har bir shaxs hayotida bo‘lganidek, metallurgiya sohasida ham turli manfaatlar to‘qnashuvi holatlari sodir bo‘lishi mumkin. Bu holatlar ishlab chiqarish samaradorligi va ishchi-xodimlar o‘rtasidagi ishonchga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kombinat o‘z faoliyatida shaffoflik va halollikni bosh mezon qilib belgilagan. Zero bugun jahon bozoridan mustahkam joy olish avvalambor ishonch masalasiga ham bevosita bog‘liq. Biroq, har qancha mustahkam poydevor ham, agar unda ko‘zga ko‘rinmas jarliklar paydo bo‘lsa, uning barqarorligiga xavf tug‘iladi. Ana shunday “jarliklar”dan biri bu – manfaatlar to‘qnashuvidir”.

Ma‘lumki, manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy manfaatlar insonning ishdagi vazifalarini adolatli va xolis bajarishiga ta‘sir qilgan yoki ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan holatdir.

Oddiy qilib aytganda, insonning shaxsiy manfaati ishdagi qarorlariga ta‘sir qilish holati manfaatlar to‘qnashuvi deyiladi. Masalan, bir rahbar tenderda o‘z qarindoshiga yordam bersa, yoki korxonaning pulini o‘z tanishlari orqali sarflasa – bu halollik mezonlariga to‘g‘ri kelmaydi. Agar xodim shaxsiy biznesini ishxona resurslari yordamida rivojlantirsa – bu ham manfaatlar to‘qnashuvidir. Yoki kimdir kombinatda qabul qilinayotgan qarorlarga ta‘sir qilish maqsadida o‘zining shaxsiy tanishlarini faol tarzda ishga solsa – bu holat ham halollik mezonlariga zid hisoblanadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi – korrupsiyaning boshlanishidir. Korrupsiya faqat pul olish-berish bilan bog‘liq emas. U shaxsiy manfaatni xizmat manfaatlaridan ustun qo‘yish bilan boshlanadi.

Agar shaxsiy manfaatlar umumiy ishdan ustun bo‘lsa, ishonch yo‘qoladi, jamoada norozilik paydo bo‘ladi, natijada butun korxona jabr ko‘radi. Eng yomoni kombinat obro‘sig a putur yetkaziladi.

Metallurgiya kombinatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish ustuvor vazifa qilib belgilagan. Bu borada qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan har bir rahbar o‘z manfaatlari haqida ochiq ma‘lumot beradi, xodimlar uchun halollik va etika bo‘yicha o‘quvlar o‘tkazilyapti, har qanday shubhali holatni xabar qilish mumkin bo‘lgan ishonch telefonlari ishlayapti, barcha kelishuvlar ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilyapti.

Manfaatlar to‘qnashuvini jamiyat uchun xavfli infektsiya deb hisoblash mumkin. Agar vaqtida davo topilmasa – natijalari jiddiy bo‘ladi. Shuning uchun barchani birgalikda manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashishga chaqirib qolaman.

Har birimiz manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga intilsak, adolat va vijdon amriga bo‘ysunib ish yuritsak korxonamiz ham, yurtimiz ham barqaror rivojlanadi.

Muhammad Mondjazib
“O‘zmetkombinat” AJ ning Yuridik departamenti direktori